Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319869

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: XALQARO STANDARTLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

ABDIKHAMIDOV DAVRON BARAT O'G'LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KREMS AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi tinglovchisi Tel: +998 (99) 296-76-99
NU'MONOV ABROR SHUXRAT O'G'LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KREMS AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi tinglovchisi
KARIMJONOV ABDULLOH AHADJON O'G'LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KREMS AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi tinglovchisi

Kirish

Bugungi kunda davlat boshqaruvi, hududiy rivojlanish, ijtimoiy siyosat va agrar sohani samarali rejalashtirishda ishonchli, to'liq va tezkor statistik ma'lumotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Aholining soni, tarkibi, yashash sharoiti, bandlik darajasi, uy xo'jaliklari holati, shuningdek, qishloq xo'jaligi subyektlari, yer resurslari, chorvachilik, ekin maydonlari va agrar ishlab chiqarish salohiyatiga oid aniq ma'lumotlar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim axborot bazasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish nafaqat statistik tadbir, balki iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim davlat ahamiyatiga ega jarayondir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi PF-173-sonli Farmoni[1] mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri 2026-yil 15-yanvar holatiga ko'ra, 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o'tkazilishi belgilangan. Shuningdek, ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish bo'yicha Respublika komissiyasi tuzilishi va Milliy statistika qo'mitasi ushbu komissiyaning ishchi organi etib belgilanishi jarayonning institutsional jihatdan tizimli tashkil etilishini ko'rsatadi.

Mazkur Farmonning qabul qilinishi aholi va qishloq xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni zamonaviy talablar asosida shakllantirish, statistik kuzatuvlar sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos axborot bazasini yaratish zaruratini yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, ro'yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish - elektron savolnomalar, onlayn ro'yxatdan o'tish, maxsus axborot tizimlari, planshetlar, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash va real vaqt rejimidagi monitoring imkoniyatlari - ushbu tadbirning

Published: 05.06.2026

Cite this article: Abdikhamidov Davron Barat o'g'li, Nu'monov Abror Shuxrat o'g'li, Karimjonov Abdulloh Ahadjon o'g'li (2026). Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda raqamli texnologiyalar: xalqaro standartlar va O'zbekiston tajribasi. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319869

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ro‘yxatga olish jarayonida census.stat.uz portali orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tish imkoniyati ham nazarda tutilgan.

Shu sababli, “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda raqamli texnologiyalar: xalqaro standartlar va O‘zbekiston tajribasi” mavzusi bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy dolzarblik kasb etadi. Chunki raqamli texnologiyalar ro‘yxatga olish jarayonida inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish, ma’lumotlarni markazlashgan holda yig‘ish, hududlar kesimida tezkor tahlil qilish hamda davlat dasturlarini aniq statistik dalillar asosida ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan raqamli ro‘yxatga olish tizimi O‘zbekistonning milliy statistika tizimini modernizatsiya qilish, global statistik taqqoslashlarda ishtirok etish va dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Metodologiya

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonlari zamonaviy davlat boshqaruvi uchun zarur bo‘lgan ishonchli statistik axborot manbai sifatida talqin qilinadi.

R. Kitchin raqamli ma’lumotlar inqilobi davlat boshqaruvi, bilim ishlab chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi[2]. Uning yondashuviga ko‘ra, raqamli ma’lumotlar faqat texnik resurs emas, balki boshqaruv sifati, shaffoflik, xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Bu fikr aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish oddiy texnik yangilik emas, balki statistik boshqaruv madaniyatining yangi bosqichi ekanini ko‘rsatadi.

W. Radermacher rasmiy statistikaning raqamli va globallashgan jamiyatdagi o‘rnini tahlil qilib, statistik ma’lumotlar zamonaviy demokratik jamiyatlarda qaror qabul qilishning muhim institutsional asosi ekanini qayd etadi. Uning fikricha, raqamlashtirish sharoitida rasmiy statistika o‘z vazifalarini qayta talqin qilishi, ya’ni faqat ma’lumot yig‘uvchi tizim sifatida emas, balki ishonchli, xolis va sifatli axborot infratuzilmasi sifatida rivojlanishi zarur. Mazkur qarash O‘zbekiston sharoitida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonini faqat bir martalik statistik tadbir sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, hududiy rejalashtirish va agrar siyosat uchun uzoq muddatli axborot bazasi sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan BMTning aholi va uy-joy ro‘yxatga olish bo‘yicha tavsiyalarida zamonaviy ro‘yxatga olish jarayonlarida ma’muriy ma’lumotlardan foydalanish, geofazoviy integratsiya, sifatni ta’minlash va favqulodda holatlarga tayyorgarlik asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan. BMT Statistika komissiyasi 2025-yilda “Principles and Recommendations for Population

and Housing Censuses, Revision 4” hujjatini xalqaro standart sifatida e’tirof etgan[4]. Bu esa ro‘yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni nafaqat qulaylik, balki xalqaro statistik taqqoslanish va ma’lumotlar sifatini oshirish vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar ham aholini ro‘yxatga olishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Xususan, B. Annazarovaning tadqiqotida aholini ro‘yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ma’lumotlar xavfsizligi, tahlil qilish, qulaylik, ishonchlilik, samaradorlik va qamrov masalalari tahlil qilingan[5]. Bu yondashuv ro‘yxatga olishni faqat aholi sonini aniqlash jarayoni emas, balki raqamli boshqaruv va statistik axborot sifatini oshirish vositasi sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Mahalliy ilmiy qarashlarda, shuningdek, internet orqali ro‘yxatdan o‘tish va elektron planshetlardan foydalanish ro‘yxatga olish xarajatlarini kamaytirishi, so‘rov o‘tkazish vaqtini qisqartirishi, ma’lumotlarni kiritish jarayonida nazorat qilish va kuzatuv jarayonlarini avtomatlashtirilgan holda monitoring qilish imkonini berishi ta’kidlanadi. Bunday fikrlar O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar ro‘yxatga olish jarayonini tezlashtirish bilan birga, uning iqtisodiy samaradorligini ham oshirishini ko‘rsatadi.

B.A. Begalov va I.E. Jukovskaya tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining statistik faoliyatni samarali tashkil etishdagi o‘rni alohida tadqiq etilgan[6]. Ularning yondashuvi milliy statistika tizimini innovatsion iqtisodiyot talablariga moslashtirishda AKT vositalarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu qarash aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy statistika tizimini modernizatsiya qilishning tarkibiy qismi ekanini asoslaydi.


Muallif fikricha, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashni faqat texnik qulaylik sifatida baholash yetarli emas. Ushbu jarayon bir vaqtning o‘zida huquqiy, tashkiliy, metodologik va texnologik asoslarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-sonli Farmoni asosida 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish belgilangan bo‘lib, mazkur tadbirda “mahalla yettiligi” xodimlari planshetlardan foydalanishi ham nazarda tutilgan. Shuningdek, jarayonning birinchi bosqichida census.stat.uz portali orqali OneID tizimi yordamida onlayn ro‘yxatdan o‘tish, ikkinchi bosqichida esa uyma-uy yurib planshet orqali ro‘yxatga olish tashkil etilishi belgilangan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish xalqaro standartlarga mos, tezkor va ishonchli statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirishning muhim shartidir. Biroq raqamlashtirishning samarasi faqat planshet yoki onlayn platforma mavjudligi

bilan belgilanmaydi. Uning muvaffaqiyati ma’lumotlar sifati, respondentlarning ishonchi, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi, ro‘yxatga oluvchi xodimlarning tayyorgarligi, internet infratuzilmasi va hududlar kesimida teng qamrov ta’minlanishiga bog‘liq. Shu sababli O‘zbekiston tajribasida raqamli ro‘yxatga olish modeli xalqaro standartlar, milliy huquqiy asoslar va mahalliy ijtimoiy-institutsional sharoitlar uyg‘unligida rivojlantirilishi lozim.

Natijalar

1-rasmda aholi va qishloq xo‘jaligiga oid ma’lumotlar yig‘ilish tarkibi aks ettirilgan. Unga ko‘ra, umumiy savollar soni 71 tani tashkil etib, shundan 54 tasi, ya’ni 76,1 foizi aholiga oid savollardan iborat. Qishloq xo‘jaligiga oid savollar esa 17 tani yoki jami savollarning 23,9 foizini tashkil etadi. Bu nisbat ro‘yxatga olish jarayonida asosiy e’tibor aholining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, bandlik, yashash sharoiti va uy xo‘jaligi tarkibi kabi ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilganini ko‘rsatadi.



1-rasm. Aholi va qishloq xo‘jaligiga oid ma’lumotlar yig‘ilish tarkibi[7]


Shu bilan birga, savolnomaning qariyb to‘rtdan bir qismini qishloq xo‘jaligiga oid savollar tashkil etishi ushbu ro‘yxatga olish tadbirining faqat demografik ma’lumotlarni yig‘ish bilan cheklanmasligini anglatadi. Qishloq xo‘jaligiga oid savollar orqali uy xo‘jaliklarining agrar faoliyatdagi ishtiroki, yer resurslaridan foydalanish, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa qishloq hududlarida yashovchi aholining iqtisodiy faolligi va agrar resurslardan foydalanish holatini baholash uchun muhim statistik asos yaratadi.

Mazkur tarkibdan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri kompleks yondashuvga asoslanmoqda. Ya’ni bir tomondan, aholi haqidagi asosiy demografik va ijtimoiy ma’lumotlar shakllantirilsa, ikkinchi tomondan, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar ham yagona ro‘yxatga olish jarayoni doirasida yig‘iladi. Bu yondashuv raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni tezkor yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi.

2-rasmda FAO tavsiyasi asosida aholi ro‘yxatiga kiritilishi mumkin bo‘lgan qishloq xo‘jaligi moduli tarkibi ko‘rsatilgan. Ushbu tarkibdan ko‘rinadiki, qishloq xo‘jaligi modulida eng katta ulush ekin turlari va ekin maydonlariga

tegishli bo‘lib, u 28,6 foizni tashkil etadi. Bu qishloq xo‘jaligi statistikasida ekin maydonlari, ekin turlari va ularning tarkibini aniqlash eng muhim yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Yer maydoni, yerdan foydalanish va yer egaligi bilan bog‘liq ma’lumotlar 21,4 foizni tashkil etadi. Bu esa qishloq xo‘jaligi ro‘yxatida yer resurslari asosiy statistik obyektlardan biri sifatida qaralishini bildiradi. Chunki yer maydoni, egalik shakli va undan foydalanish holati agrar ishlab chiqarish salohiyatini, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini hamda hududiy qishloq xo‘jaligi siyosatini baholashda muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. FAO tavsiyasi asosida aholi ro‘yxatiga kiritilishi mumkin bo‘lgan qishloq xo‘jaligi moduli tarkibi[8]

Shuningdek, akvakultura, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar ham 21,4 foiz ulushga ega bo‘lib, bu FAO yondashuvida qishloq xo‘jaligi faqat dehqonchilik va chorvachilik bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Xo‘jalikni aniqlash va huquqiy maqomga oid bandlar 14,3 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich esa statistik birlikni, ya’ni ro‘yxatga olinayotgan xo‘jalikning kimga tegishli ekani, qanday maqomda faoliyat yuritishi va qanday shaklda tashkil etilganini aniqlash zarurligini bildiradi.

Sug‘oriladigan yerlar va chorva mollari soni bo‘yicha ma’lumotlar har biri 7,1 foizdan iborat. Ulush nisbatan kichik bo‘lsa-da, ushbu ko‘rsatkichlar agrar siyosat uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida sug‘oriladigan yerlar, suv resurslaridan foydalanish va chorvachilik ko‘rsatkichlari qishloq xo‘jaligi samaradorligini baholashda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tajribasida aholi va qishloq xo‘jaligiga oid ma’lumotlarni birgalikda yig‘ish amaliyoti xalqaro tavsiyalar bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Birinchi rasmda savolnomaning umumiy tarkibi

ko‘rsatilgan bo‘lsa, ikkinchi rasmda qishloq xo‘jaligi modulining ichki mazmuni xalqaro yondashuv asosida yoritilgan. Bu esa maqola mavzusining asosiy g‘oyasini, ya’ni raqamli texnologiyalar yordamida aholi va qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini kompleks, tizimli va xalqaro standartlarga mos shaklda yig‘ish zaruratini asoslaydi.

Muallif fikricha, bunday yondashuv O‘zbekiston uchun ayniqsa muhimdir. Chunki mamlakatda aholi tarkibi, qishloq hududlaridagi uy xo‘jaliklari, yer resurslari, dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli aholi va qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan holda yig‘ish davlat dasturlari, hududiy rivojlanish strategiyalari va agrar siyosatni aniq statistik dalillar asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son
2. Kitchin, R. (2014). The data revolution: Big data, open data, data infrastructures and their consequences. SAGE Publications. https://books.google.co.uz/books?id=rNjSAwAAQBAJ
3. Radermacher, W. J. (2019). Governing-by-the-numbers/Statistical governance: Reflections on the future of official statistics in a digital and globalised society. Statistical Journal of the IAOS, 35(4), 519–537. https://doi.org/10.3233/SJI-190562
4. United Nations. (2025). Principles and recommendations for population and housing censuses: Revision 4. United Nations Statistics Division. https://unstats.un.org/unsd/publication/SeriesM/Series_M67Rev4en.pdf
5. Annazarova Barno Rustamovna. (2024). Raqamli texnologiyalar asosida aholini ro'yxatga olish jarayonlarini samarali tashkil etish. Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot, 2(11), 8–13. https://doi.org/10.5281/zenodo.14235562
6. Radjiyev, A. B. (2023). Raqamli iqtisodiyot shakllanib borish sharoitida milliy statistika tizimini rivojlantirib borish istiqbollari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 7(7), 72–77. https://doi.org/10.54613/ku.v7i7.783
7. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari
8. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2026). World Programme for the Census of Agriculture 2030: Programme, concepts and definitions (Master draft, FAO Statistical Development Series No. 21). Food and Agriculture Organization of the United Nations.